

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**Musiqqa, badiiy grafika va mehnat ta'limi fakulteti
«Badiiy grafika va uni o'qitish metodikasi» kafedrası
“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo’nalishi 3- 05 guruh
talabasi**

Hamida Qobilovaning

RANGTASVIR
fanidan yozgan

REFERAT

Mavzu: Animalistik janr

Bajardi:

Hamida Qobilova

Tekshirdi:

Sh. Oydinov

Samarqand-2014

ANIMALISTIK JANR

Reja

1. Tasviriy san'atning animalistik janri to'g'risida umumiy ma'lumot.
2. Animalistik janr tasviriy san'atda muhim ekanligi.
3. Animalistik janrda kompozitsiyaning tutgan o'ri.

Xulosa .

Kirish

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar jamiyatimizni iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy jihatdan jahonning eng rivojlangan mamlakatlari qatoridan o'rin olishida ijobiy natijalar bermoqda.

Insonni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash xalqimizning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz marifat, ma'naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o'rgatish ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun-qoidalarini muttasil izlaganlar. Prezident I.Karimov aytganlaridek: «Jamiyatimizdagi yangilanish va islohotlar tufayli dunyo sivilizatsiyasiga munosib hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizdan bizga meros bo'lib qolgan yuksak ma'naviyat, ahloqiy ma'daniyat, chiroyli milliy an'analarimizdan foydalanish imkoniyati ochildi». Mustaqillikka erishganimizdan so'ng buyuk vatandoshlarimiz – Imom al-Buxoriy, Hakim at-Termiziy, Xo'ja Bahouddin Naqshband, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'iloniylarning nomlari qayta tiklandi. O'tmishning buyuk mutafakkirlari – Abu Rayqon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muqammad Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Aqmad Farqoniy, Mirzo Uluqbek, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, Muhammad Murod Samarqandiylarning nomlari g'urur bilan tilga olinmoqda. Ularning sharafiga yodgorlik majmualari qurilib, kitoblar chop etilib, faoliyatlari keng targ'ib qilinmoqda.

Vatanimiz kelajagi porloq obod, uning poydevori mustahkam bo'lishi ko'p jihatdan, ulg'ayib kelayotgan yoshlarimizga qanday ta'lim tarbiya berishimizga bog'liq. Kelajak yoshlarni har tomonlama sog'lom teran fikrli dunyo qarashi keng, vatanga halqimizga foydasi tegadigan barkamol insonlar bo'lib yetishishida boshqa fanlar qatori tasviriy san'atni ham o'z o'rnini bor.

1997-yili O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi. Respublika Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning milliy modelidagi bosh muddao ham barkamol avlod tarbiyasi, mustaqil va erkin fikrlovchi, dunyoqarashi keng ijodkor shaxsni tarbiyalash

masalasidir. Bu vazifani esa tasviriy san'atdan xabarsiz kishi me'yoriga yetkaza olmasligi hech kimga sir emas.

Odamlar tomonidan biror-bir ish, narsa, buyum va hokazolar mohirlik bilan bajarilishi va maromiga yetkazilib ishlanishi insonning san'atkorlik darajasini bildiradi. Shu boisdan ham rassom, haykaltarosh, me'mor, kulol, bastakor, yozuvchi va boshqa ijodkorlar yaratgan asarlarni san'at asari deymiz. San'at qaysi ko'rinishda bo'lmasin kishilarning his-tuyg'usiga, ruhiyatiga ta'sir etuvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Har bir ijodkor o'z-o'zicha izlanadi, o'z - o'zicha mehnat qiladi.

Tasviriy san'at fani badiiy tarbiyaning asosini tashkil etadi va uni o'qitish orqali o'quvchilarda estetik tarbiyani shakillantiriladi. Tasviriy san'atni o'qitishning asosiy maqsadi turli narsalarning tasvirini amaliy holda bajara olishga o'rganish va kompozisiyalar tuzishdir. Narsalarni estetik idrok etishni o'rgatish, ijodiy qobiliyatini shakillantirish; amaliy rasim chizishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish; tabiatga nisbatan yaxshi munosabatni rivojlantirib jamiyatimiz, davlatimiz istiqboliga hissa qushadigan vatanparvar yoshlarni tarbiyalashdir.

Tasviriy san'atning animalistik janri xususida hamma ham to'liq tasavvurlarga ega emas. Shuning uchun xam tasviriy san'atga qiziqqan barcha talaba, o'quvchi ham animal janrda rasm chiza olish lozim. Bular haqida tushunchalarga ega bo'lish albatta foydali bo'lib yana bir bora bolalarning tasviriy faoliyatini boshqarib bora olishiga zamin tayyorlaydi

Tasviriy san'at darslarida rasm ishlash, turli hayvon va qushlarni tasvirlash animalistic janrga hosdir. Animalistik janrda rasm ishlash o'quvchilarga estetik zavq bag'ishlaydi. Bu o'rinda rangli bo'yoqlardan foydalanishni ham bilish kerak. Chunki bo'yoqlarnig hususiyatlarini bilamasdan muvafaqiyatli rasmlar chizib bo'lmaydi. Maktabda va kollejlarda rangli bo'yoqlarda ishlashni asosan suvda tez eriydiganlaridan foydalaniladi. Bunga akvarel va guash bo'yoqlari juda qo'l keladi

Animalistik janrda ishlangan tasviriy san'at asarlarini tomosha qilish va bu janrda rasm ishlash, kishi qalbida go'zallik hislarini, ezgulikni, tabiatga vatanga

muhabbatni, tariximizga, milliy urf odatlarimizga bo'lgan qiziqishni oshishida, yoshlarni sabr toqatli, chidamli bo'lishlarida hamda ularda mehnat qilish ko'nikmalarini shakllanishida, qoyingki o'zligimizni to'laqonli anglashimizga, yordam beradi.

Tasviriy san'atning animalistik janri to'g'risida umumiy ma'lumot.

Ajdodlarimiz tarixining eng qadimgi davrlarida tasviriy ifodalar beqiyos ahamiyat kasb etgan. Negaki, eng qadimgi odamlar bir-birlariga fikrlarini, munosabatlarini, istaklarini chiziqlar, oddiy shakllar, primitiv tasvirlar orqali yetkazishga intilganlar. Masalan, ular ov qurolarini tasvirlash orqali ovga bormoqchi ekanliklarini ifodalasalar, yovvoyi buqa va boshqa turli hayvonlar tasvirlari orqali, o'sha hayvonlarni ovlamoqchi ekanliklarini bildirganlar. Bundan bilish mumkinki animalistik janrga oid bo'lgan tasvirlar o'sha davrlardan boshlab rivojlangan. Hozirgi O'zbekiston hududidan ham ana shunday ibtidoiy jamoa davriga mansub o'nlab tasvirlar qoldiqlari topilgan. Shulardan biri Zaravutsoy g'orida ishlangan ov manzarasidir. Mazkur g'ordagi rasmlarda qadimgi rassomlarning o'ziga xos faoliyatini ko'rish mumkin. Qo'hitang tog'ining eng yuqori qismining birida joylashgan bu g'orni "Oltin olov qoyasi" yoki "Oltin olov darasi" deb ham, atashgan. Chunki g'or - oltin, o't - olov ma'nosida ishlatilgan. Shu bois bu muqaddas yodgorlik "Zaravutsoy" nomi bilan atalib kelinmoqda. Zaravutsoy ov manzarasidagi turli rasmlarni kuzatish qadimgi odamlarning hayotini, turmush tarzini jonli tasavvur qilishga yordam beradi. Ibtidoiy odamlar hayotida ovchilik asosiy mashg'ulot turi bo'lganligi sababli ibtidoiy tasvirlarda ov manzarasi keng o'rinni egallagan.

Tasviriy san'atning ibtidoiy davriga mansub namunalaridan biri Jizzax viloyatidagi Taqatosh nomi bilan atalib kelinayotgan toshdagi tasvir yozuvlardir. Bu tasvirlarda ham fikr, sezgi, amaliy ehtiyoj kabi tuyg'ular aks ettirilgan. Qadimiy tasvirlardan yana biri Zarafshon etaklaridagi "Sarmishsoy" tasvirlarida esa ibtidoiy rassomlar ijodi o'z aksini topgan. Ibtidoiy tasviriy san'at namunalarini umuman qadimgi san'atning tiklanishida arxeologlarimiz- ning samarali mehnatlari diqqatga

sazovor. Chunonchi, Sarmishsoy rasmlari haqida A. Muhammadjonov “Qadimgi Buxoro” kitobida shunday qiziqarli fikrlarni yozadi: “Bu ibtidoiy tasviriy san’at asarlari Sarmishsoy darasining ikki yuzida qad ko’targan qoyatoshlarning silliq yuzasiga solingan. Ularning asosiy qismi uchli asboblarning vositasida surunkasiga zarb bilan yoki o’tkir qirrali keskichlar vositasida chizib yoki tarashlangan. Ming yillar osha ularning eng qadimiy nusxalari quyosh va shamol ta’sirida uniqlashtirib qorayib ketgan bo’lsa-da, choshgoh va kech peshinlarda ko’zga yaqqol tashlanadi.

Sarmishsoy qoyalari yovvoyi buqalar, shoxlari atrofga butalab ketgan bug’u va quyonlar, yelib borayotgan tog’ takasi, ohu, to’ng’iz, bo’ri, qoplon, itlar hamda bir-biri bilan olishayotgan yovvoyi va xonaki hayvonlar, shuningdek, ovchilar va ov manzaralari ham tasvirlangan”. Qadimgi rassomlar faoliyatida ham kuzatuvchanlik, shakl va chiziqlar orqasida bolayotgan voqealarning xarakterini, mazmunini yoritib bera olish qobiliyatlari ko’zga tashlanadi. Qoyatosh, daralar va g’orlardagi rasmlar mazmunan boy bo’lishi bilan birga xilma-xildir. Ularda turli manzaralar o’z aksini topgan. Umuman bu tasvirlar orqali odamlarning mushtarak tuyg’ulari yuzaga chiqqanligini ko’ramiz. Bu rasmlarda har bir belgi, qoralama yoki shakl o’ziga xos fikrni ifodalab berishi bilan qiziqarlidir. Yuqoridagi dalillardan ko’rinib turibdiki, ajdodlarimizning hayotida, turmush tarzida tasviriy faoliyat alohida o’rin tutgan.

Animal janri - majoziy obrazlarni aks ettiruvchi tasviriy san’at asarlaridir. Bunda asosan turli hayvonlar, qushlar, ularning harakatlari, qivofalari va shu obrazlar orqali hayot voqealari aks

Xayvonlar obrazini rasmlarda yaratish avvalo qadimdan rivojlanib kelgan. Ovdagi yutug’ini ham chizgan rasmi bilan bog’liq deb bilganlar. Bu ularning psixologik tayyorgarligiga qarab borishi deyish mumkin. Shuning uchun ham ular qo’rqmaslik, tabiat qoidasiga buysunish va turli tabiiy xolatlar bilan kurashga chorlagan.

Tasviriy san’at rivojlanishi davomida, uzoq yillar barcha janrlarda ijod qilish bir-biri bilan birga bordi. Shulardan ajralib chiqqan animalistik janr ham keyinchalik rivojlandi. Xayvonlar obrazini yaratish uchun uning xarakterini bilish

lozim. Chunki u hayvon yoki qushlar faqat bizga gusht, tuxum, jun va boshqa narsalargagina kerak emas. Ular tabiat muvozanatini saqlash, insonlarga har qanday damlarida hamroh bo'lish uchun yaratilgandir.

Juda ko'plab rassomlar jonvorlar rasmini chizgan ya'ni, Urta Osiyo minatyurachilarining asarlarida, Rubens, V. A. Vatagin, Ye. Rachev asarlarida hayvonlar alohida tasvirlanadi. Ko'plab suratlarda esa asarlarning bir qismi shaklida unga to'ldiruvchi bo'lib hisoblanadi.

Tabiatdagi narsalarni yaxshi ko'rish, ularni himoya qilish, o'rgatish, turli suratlarda orqali amalga oshadi. Ko'pincha uy hayvonlari bizga doimiy hamroxi, ot, quy, sigir, echki, it, mushuk va boshqalar. Boshqa yovvoyi hayvonlar tabiatimizning ko'rki, sanitaridir. Qushlar ham bizning eng yaqin do'stlarimiz bo'lib hisoblanadi. Ularning rasmini chizishni bilish odamga zavq bag'ishlaydi. Shunintdek, o'quvchilar animal janrlarda rasm chizari ekan fazoviy tasavvurlarini oshirib boradilar.

Hayvonlar tasviri asosida asarlar yaratganda ularning hayot tarzini o'rganishni ham talab qiladi. Ularning tashqi ko'rinishi, xarakteri, o'ziga xosligi tuzilishi har turli yashash tarzi to'g'risida ma'lumotlar oladi.

Animalistik janrda hayvon va qushlarning tashqi ko'rinishini, xarakterli jixatlarini tasvirlanishini o'rganish imkoniyatiga ega bo'lish mumkin. Animalistik janr haqida umumiy ma'lumotlar va uning tarixiy taraqqiyoti. Animalistik janr tasviriy san'atning nafis san'at turiga kiradi. Bu alohida tasviriy san'atning janri bo'lib, «anima»- «jonivorlar», ya'ni «hayvonot olami» degan ma'noni anglatadi. Bu janrda hayvonot olami tasvirlanadi. Tasviriy san'at turlarining grafika, rang tasvir, haykaltaroshlik hamda dekorativ halk amaliy san'atida ham tasvirlanadi.

Animal rassom tabiatga shu soha olimning ko'zlatishlari kabi katta mehr qo'shiyishi va o'z diqqat e'tiborini unga tamomila qaratish lozim bo'ladi.

Animal janrga oid suratlarda dastlab ibtidoiy tuzumda shakllangan. Hayvonot olami ibtidoiy tuzum odamlari xayotida muxim o'rin egallagan. Chunki bu davrda ham odamlar o'z tushuncha va fikrlarini so'z orqali ifoda eta olmas edilar.

Qadimgi musavvirlar o'zlari istiqomat qilgan g'orlarning devorlarida chizib qoldirgan keyik, zubr va mamont tasvirlari hozirgi kunda ham o'z ta'sirini yuqotganicha yo'q.

Milloddan avvalgi ming yillikda Karpatdan Shimoliy Xitoygacha bo'lgan yerlarda yashagan «skif» qabilasining san'atida ham «xayvonot uslubi» deb nom, olgan qushlar va hayvonlarning loy, metall va suyakdan yasalgan jozibali shakllari ham yuksak e'tiborga molik bo'lgan.

Qadimgi Misrda esa jonivorlarni tasvirlash takrorlanmas monumentallik va yuksaklikka ega edi. Sababi misrliklar ko'plab jonzotlarni o'zlarining xudosi deb xisoblashar edi.

Spinkslar – inson qiyofasidagi xayvon va qushlarning boshi qo'ndirilgan ilohiy suratlar inson va hayvonlarning tabiatdagi uzviy bog'liqligini namoyon etib turadi. Huddi shunday birdamlik aloqalari qadimgi Peru va Meksika xalqlarining dekorativ bezak ishlangan buyumlarida ham uchratishimiz mumkin.

Xayvonot olaminig tasvirlanishi Qadimgi Yaponiya va Qadimgi Xitoy tasviriy san'atidagi dekorativ va monumental kompozitsiyalarining keng tarqalgan motivlaridan biriga aylangan edi.

Ikki daryo oralg'i mamlakatlarining san'ati ho'kiz, sher, otlarning butun gavdasi bilan yoki kalla qismining tasvirini idishlarda, kulol va musiqa asboblari bezak o'rnida ishlatilganligining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Qadimgi Yuioniston va Qadimgi Rim musavvirlari ijodida esa san'atning bosh obyektini inson qiyofasi olingan antik davr madaniyatida xayvonot olamini tasvirlash aloxida ahamiyatga ega emas edi.

Urtasiyo tasviriy san'atida esa biz asosan haykaltaroshlik miniatyurani uchratishimiz mumkin. Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi Zarautsoy harobalaridan topilgan.

Buxoro viloyatida qadimgi Varaxsha saroyida topilgan «Yararalangan quchqor» tasviri mukammal ravishda proporsionallikka e'tibor berilib ishlangan gorelef shaklidagi haykaltaroshlik asari bu yerda ovchilikning naqadar avj olganidan dalolat berib turibdi.

Keyinchalik XIV-XV asrlarga kelib hayvonlarning va qushlarning tasvirini biz asosan miniatyura asarlarida uchratishimiz mumkin.

Yevropa uygonish davri musavvirlari ijodida real borliqni o'zining keng qamrovi bilan tasvirlanishi, ularning hayvonlar tasviri tushirilgan natural ko'rinishlari haykaltaroshlikda freska va dastgoh janri asarlarida o'z aksini topadi. Bunday asarlar yaratilishiga birinchilardan bo'lib XV asrda Italian musavviri A. Pezachello murojaat qildi. XVI asrga kelib esa hayvonlarning ajoyib kuch va aniqlikka ega bo'lgan suratlarini Leonardo da Vinchi va A. Dyurer yaratishdi.

Gollandiyada esa XVIII asrda xayvonlarni tasvirlash uchun aloxida janr mavjud edi. Bu janrda birinchilardan bo'lib ijod qilingan musavvirlarlan A. Keyp va P Potter o'z asarlarida uy hayvonlarinng ferma va yaylov fonida mohirona tasvirlab berishgan.

Bu davrda har bir animal musavvir o'zi sevgan mavzu doirasi va obrazlariga murojaat qilar edi. XIX asrda moxir haykaltarosh A. P. Bari o'z asarida uy hayvonlarini yirtqich hayvonlar bilan – o'ziga xos jozibadorlik bilan tasvirlay olgan.

Animaljanri. Animal lotincha “anima” so'zidan kelib chiqan bo'lib, “jonlantrish” demakdir. U tasviriy san'atning deyarli barcha turlarida mavjud. Hayvon va qushlarning rasmini ishlovchi rassomlarni animalist rassomlar deb yuritishadi. Bunday rassomlarning tabiatga, uning ajralmas qismi bo'lgan hayvonot olamiga muhabbati kuchli bo'ladi.

Animal janr tasviriy san'atning mustaqil janri bo'lsa-da, hayvonlar tasviri ba'zan maishiy, portret, natyurmort janrlarida ham aks etinsh mumkin.

Hayvonlarni tasvirlashga qadimgi Misrda katta e'tibor berilgan edi. Chunki, misrliklar ko'plab ilohlarini turli xayvonlar qiyofasvda tasavvur etishgan. Ularni sfinkslarda odam, turli xayvonlar va qushlar ko'rinishida tasvirlaganlar. Bu ulkan haykallarning tanasi odam, boshi biror yirtqich hayvon yoki qush ko'rinishida bo'lgan.

O'zbekistonda hayvonlar tasvirini ishlash eramizdan avvalgi VII— V asrlarda Afrasiyob freska va haykallarida (fil, ot, tuya, qushlar) yuksak badiiy saviyada ishlanganligining guvohi bo'lamiz.

Shark miniatyura rangtasviri asarlarida ham hayvonlar tasviri tez-tez uchraydi. Miniaturachi rassomlar tomonidan ishlangan ov manzarasiga oid tasvirlarda kiyik, sher, qoplon, qushlar ko'p tasvirlanadi. Kamoliddin Bexzodning "Tuyalar jangi" asari Rizo Abbosiyning "Chupon" miniatyurasi ham fikrimizning dalilidir.

XV—XVI asr Yevropada Uygonish davri rangtasvirida A.Pizanello, Leonardo da Vinchi, A.Dyurerlar hayvonlar tasvirini aniq realistik tarzda ifodalashga harakat qilganlar.

XVII asrga kelib Gollandiyada hayvonlarni tasvirlash aloxida janrga aylandi. Keyinchalik animal janrda rassom va haykaltaroshlardan P.Klodg, V.Serov, V.Vatagin, Yu.Vasnesovlar ham ijod kilishib, betakror san'at asarlarini yaratdilar.

Animalistik janr tasviriy san'atda muhim ekanligi.

Odamlar tomonidan biror-bir ish, narsa, buyum va hokazolar mohirlik bilan bajarilishi va maromiga yetkazilib ishlanishi insonning san'atkorlik darajasini bildiradi. Shu boisdan ham rassom, haykaltarosh, me'mor, kulol, bastakor, yozuvchi va boshqa ijodkorlar yaratgan asarlarni san'at asari deymiz. San'at qaysi ko'rinishda bo'lmasin kishilarning his-tuyg'usiga, ruhiyatiga ta'sir etuvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Har bir ijodkor o'z-o'zicha izlanadi, o'z - o'zicha mehnat qiladi. Ana shuning uchun ham san'at o'ziga xos turlariga ega.

Adabivot, musiqa, teatr. kino, sirk, me'morchilik, tasviriy va amaliy bezak kabi boshqa san'at turlari ham mavjuddir.

Tasviriy san'at - eng qadimiy va keng tarqalgan san'at turlaridan biridir. Uygonish davrining buyuk rassomi Leonardo da Vinchi "Tabiat yaratgan shakllarning barcha sifatlariga o'z san'ating bilan taqlid qilishda ustasi farang bo'lmasang, yaxshi musavvir bo'lmog'ing dargumon", deb ta'kidlash

barobarida tasviriyy san'atni egallash tabiatni o'rganish, uni sevish bilan naqadar bog'liqligini ko'rsatib, bu sohaning o'ta murakkab soha ekanligini o'qtirgan edi.

Omma orasidan yetishib chiqqan iste'dodli ijodkorlar mehnatkash xalq ommasining orzu-istaklarini, ularning go'zallik va xudbinlik, oliyjanoblik va insonparvarlik haqidagi tushunchalarini ifoda etuvchi asarlar yaratdilar. Xalqning turmushi, odatlari, yutuq va mag'lubiyatlari ularning asarlarida o'z ifodasini topdi. Har bir davrda mavjud bo'lgan ana shunday san'at hayot go'zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak hislat va fazilatlarini kamol toptirdi, ularni tenglik, ozodlik, birodarlik, yorqin kelajakka intilishga da'vat etdi.

Haqiqatdan ham insoniyat yaratib qoldirgan madaniy qadriyatlar oddiy boyliklar bo'lib qolmay, balki o'zida inson aql-zakovati, hayot to'g'risidagi fikr-g'oyalarini aks ettiruvchi ko'zgu hamdir.

Ibtidoiy jamoa tuzumidan bizgacha ashyoviy dalillar - mehnat va ov qurollari, uy-anjomlari va bezak buyumlari, odamlar yashagan manzil qoldiqlari yetib kelgan. Shular ibtidoiy jamoa kishisining estetik va diniy qarashlarini bilishga, ibtidoiy jamoaning madaniyati haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Tuproq ostida qolib qetgan moddiy yodgorliklar, odam va hayvonlar jasadining qoldiqlari, G'or va yertula devorlariga chizilgan surat va bo'rtma tasvirlar ibtidoiy jamoa davri tarixini o'rganishning muhim manbai hisoblanadi.

San'at qadim-qadimda kishilarning mehnati jarayonida yuzaga keldi va rivojlandi. Inson madaniyati taraqqiyot olamiga qadam qo'yadi. San'atning yuzaga kelishi insonning ob'ektiv voqelik to'g'risidagi bilimlarining chuqurlashishiga, o'z avlodi tajribalaridan bahramand bo'lishga olib keldi. Bu uni tabiat kuchlariga qarshi kurashishga da'vat etdi, uning aqliy kamoloti, estetik qarashlari rivojini jadallashtirdi.

Sharqiy Ispaniya, Kavkaz, o'rta Osiyodan topilgan suratlar diqqatga sazovordir. "Kiyiklarni ovlash" (Ispaniya) suratlarida obrazlar shartli (kamon otayotgan ovchilarda bu shartlilik yaqqol seziladi), sxematik, o'ta soddalashtirilgan holda tasvirlangan. Lekin bu shartlilik rassom aytmoqchi bo'lgan fikrni

tushunishga xalaqit bermaydi. Ov manzarasidagi holat - kiyiklarning jon talvasada qochishi, ovchilarning epchillik bilan olib borayotgan hujumlari, ov paytidagi shijoat, hayajon ibtidoiy jamoa rassomi tomonidan ifodali talqin etilgan. o'rta Osiyo (Surxondaryo, Farg'ona), Ozarbayjondan topilgan suratlarda ham shu xolni ko'ramiz. Zaravutsoy (Surxondaryo), Seymalitosh (Farg'ona) suratlari mashhurdir. Bu suratlarda ovchilarning hayvonlarga hujumi aks ettirilgan. Zaravutsoydagi niqob kiyib, o'ljasiga yaqinlashayotgan ovchilarni aks ettirgan surat o'tmish hayotining ma'naviy dunyosini bilishga xizmat qiladi.

Tasviriy san'at o'z o'rnida haykallaroshlik, rangtasvir va grafika kabi turlarga bo'linadi. Tasviriy san'atda voqelik, borliq shakllar, chiziqlar, ranglar orqali tasvirlanadi.

Tasviriy san'at monumental va dastgoh ko'rinishlariga ham ega. Monumental deyilganda hajm jihatidan_katta, me'morchilik, park, bog' san'atiga, shuningdek, biror-bir badiiy muhitga mo'ljallangan tasviriy san'at asarlari tushuniladi. Dastgoh asari asosan erkin ijodiy faoliyat tufayli yaratiladi.

Tasviriy san'at turlari:

Haykaltaroshlik - tasviriy san'at turlaridan biri. U lotincha "skulpo" so'zidan olinib, qattiq materiallarga "qirqish, kesish, yunish, taroshlash" orqali ishlov berish ma'nosini anglatadi.

Bu san'at ko'rinishiga qarab dumaloq va qabariq (relief) haykallar yaratish turiga bo'linadi. Dumaloq haykallarni hamma tomondan ko'rish mumkin. Agar bu san'atda inson obrazini bosh qismi yoki beligacha tasvirlansa, bunday haykallar buyust deb ataladi. Relief (qabariq) haykallar esa yuzaga bo'rttirib ishlangani uchun faqat bir tomondan ko'rishga moljallangan bo'ladi. Reliflar o'z o'rnida Gorelef va Barelef guruhiga bo'linadi. Gorelef yuzaga yopishgan holda nisbatan bo'rtib ko'rinadi. Goho biror-bir bo'lagi dumaloq haykal darajasida ham bo'ladi. Bareleflar yuzaga nisbatan kam bo'rtib tasvirlanadi, bu o'rinda tanga va taqinchoqlarni misol keltirish mumkin. Haykaltaroshlik san'ati asosan qattiq jismlardan tosh, yog'och, marmar, granit, bronza, gips va boshqa shu kabi

materiallardan tayyorlanadi. Haykaltaroshlikda hayvonlar tasvirini yasash keng o'rinni egallaydi.

Haykaltaroshlik san'atining qadimgi namunalari xalqlarimizning tarixini e'tiqodlarini, estetik dunyoqarashtarini, turmush tarzini aks ettirgani bilan qadrlidir.

O'lkamizning Surxondaryo viloyatidan qadim kushonlar davriga oid buddizmga xos haykaltaroshlik namunalarini ham ko'plab uchratish mumkin, O'zbekiston hududidagi qadim Samarqandning o'rni Afrosiyobdan bir qancha haykalchalar topilgan. Bu haykalchalarda go'zallik, sadoqat, insoniylik va diniy e'tiqodlar aks ettirilgan.

Haykaltaroshlik san'ati asarlari ham mazmuni va vazifasiga qarab monumental, dekorativ va dastgoh turlariga bo'linadi. Monumental haykaltaroshlik ma'lum bir muhit, me'morlik binolari hamda tabiatga uyg'unlashtirilib ishlangan bo'ladi. Mustaqil mazmunga ega bo'lgan, voqelikni borligicha aks ettirgan hamda inson ichki ruhiy olamini o'ziga xos tarzda ochib beradigan erkin ijodiy asarlar, shu jumladan, muzeylar, ko'rgazma zallari, hatto xonadonlarga qo'yishga mo'ljallangan haykallar dastgoh haykaltaroshligi deb yuritiladi. Haykaltaroshlik asarlarida hayvon va qushlar obrazlarini birgalikda yaratilganini ko'rishimiz mumkin. Bunga misol I. Jobborovning Toshkent shahrida joylashgan "Amir Temur" haykalidir. Unda Sohibqiron A.Temur obrazi ot ustida tasvirlangan. Damir Ro'ziboyev, Eynulla Aliyev, Abdumomin Boymatov, Ulug'bek Mardiyev. Ilhom Jabborov kabi haykaltaroshlar shu sohada samarali ijod qilishmoqda.

Grafika - lotincha "grafo" so'zidan olingan bo'lib, "yozaman", "chizaman" degan ma'noni anglatadi. Tasviriyl san'atning bu turiga oddiy va rangli qalamda ko'mir, pastel, sangina, suvbuyoq, guash va tushda ishlangan bezaklar, turli plakatlar, xajviy rasmlar va hakazolar kiradi.

Tasviriyl san'atning eng keng tarqalgan hozirjavob va jangovar turidir. Grafika san'atida voqelik asosan chiziqlar, shakllar va oq-qora ranglar orqali tasvirlanadi. Bu san'at turida har doim ham turli ranglar ishlatilavermaydi, ishlatilganida ham asar mazmunini ochib berishda asosiy vazifani o'tamaydi.

Bo'yoqlar kishilarni jalb qilishi yoki chaqiriq vazifasini bajarishi mumkin. Shuning uchun ham, bu sohada ikki, uch xildan ortiq bo'yoq deyarli ishlatilmaydi. Grafika san'ati o'z o'rnida quyidagi turlarga bo'linadi. Masalan: dastgoh grafikasi turiga, ijodkorning mustaqil badiiy faoliyatini anglatish bilan birga yangi fikr va g'oyalarni ilgari suradigan asarlar kiradi. Kitob grafikasi san'atida esa kitobning turiga qarab muqova, titul muqova kabilar hisobga olinadi. Kitob garafikasi shu kitobning mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. Kitob gazeta-jurnal grafikasi va bulardan tashqari, ana shu kitob grafikasining o'ziga xos bir turi gravyura san'ati deyiladi.

Grafika san'atining yana bir turi plakatlar yasashdir. Siyosiy plakatlar, reklama(tijorat) afishalar, satira va yumoristik asarlar shular jumlasidandir. Plakatlar ma'lum bir mavzuga (tinch- ekologiya, paxta kabilar) qaratilgan bo'ladi. Sanoat grafikasiga esa yorliq, ramz va boshqalar kiradi. Arxegrafikada loyiha, reja, uy sxemasi, manzil bo'yicha yo'nalish kabilar tasvirlanadi.

Grafika san'atining mashhur ustalari Sulton Ali Mashhadiy. Kamoliddin Behzod, Leonardo da Vinchi, Albert Dyurer o'z zamoda samarali ijod qilishgan. O'zbekistonning XX asr grafikachi rassomlaridan Iskandar Ikromov, Qutlug' Basharov, Telman Muhammedov Nikolay Ten, Ne'mat Hakimov va boshqalar ijodida hayvonlar va qushlar ishtirokida ishlangan tasviriy san'at asarlari kishilarga zavq-shavq bagishlaydi..

Rangtasvir - asosan bo'yoqlar vositasida matoga, devorga shuningdek, tekislik va yuzalarga ishlanadigan san'at turidir. Tasvir mazmuni, xarakteri va shunga o'xshash barcha hususiyatlari bo'yoqlar orqali ifodalab berilsa rangtasvir san'ati deb ataladi. Tasviriy san'atning bu turida ijodkorning ichki kechimlari, ranglarni bir-biriga me'yorida qo'shib ishlatish natijasida namoyon ladi. Masalan, qizil va qora bo'yoqlar qo'shib ishlatilishi fojiylikni aks ettirsa, och

moviy va yashil ranglarni o'ziga xos bog'lash natijasida tinch va osoyishtalik holatlari tasvirlanishi mumkin. Rangtasvir san'ati jozibali va qiziqarliligi bilan nafaqat o'zlashtirishda, hatto uni idrok qila bilishda ham o'quvchidan muayyan tayyorgarlikni talab etadi.

Tasviriyy san'atning o'ziga xos nafis bu turi insoniyat tafakkurining noyob namunasi sifatida kishilarni necha asrlardan beri o'ziga rom qilib keimoqda. O'zbekiston hududida ham qadimdan rangtasvir san'ati "taraqqiy etganligini Afrosiyobdagi devoriy rasmlar, Varaxsha Bolaliktepa tasviriyy namunalaridan bilish mumkin. Bu o'tmish rangtasvir san'ati ajdodlarimizning go'zallik borasida erishgan yutuqlarini hikoya qilibgina qolmasdan, tarix sirlarini ochib beruvchi ko'zgu vazifasini ham bajara oladi. Rangtasvir san'atining mashhur vakillaridan Leonardo da Vinchi, Rafael Santi, Rembrandt. Karl Bryullov, Anri Matiss, XX asr o'zbek rangtasvir san'ati ustalaridan O'rol Tansiqboyev, Abdulhaq Abdullayev, Rahim Ahmedov, Malik Nabiyeu, Javlon Umarbekov, Bahodir Jalolov, Alisher Mirzayev, Akmal Ikromjonovlar ijodi diqqat-e'tiborga molik.

Rangtasvir san'ati o'z o'rnida monumental, dastgoh, dekorativ bezak ko'rinishlarga ajraladi. Monumentallik ko'rinishida ijtimoiy hayot voqealari aks ettiriladi va tasvir uzoq masofadan ko'rishga mo'ljallanadi. Monumental ko'rinishdagi rangtasvir san'ati turi devor yuzasiga ishlash (freska), turli rangli toshlar, shishalar, sirli sopollarning devorda ishlatilishi (mozaika), maxsus to'rtburchak va ramkalar ichida tasvirlash (panno) yo'nalishlarini ham o'z ichiga qamrab oladi. Dekorativ rangtasvir san'ati esa bezash vazifasini o'taydi. Teatr, kino va boshqa shunga o'xshash sohalarda dekorativ rangtasvir san'ati qo'llaniladi.

Tasviriyy san'at janrlari

Portret janri. Inson qiyofasini ichki psixologik olami bilan bog'langan holda aniq, bir obrazda yaratilishi portret san'ati deb

yuritiladi. Portretda insonning to'la gavdasi, yarmi yoki yuz qiyofasining faqat o'zi ham bo'lishi mumkin. Portret yaratish o'ziga xos murakkab jarayon bo'lib, insonning anatomik tuzilishidan tortib ichki ruhiy, ma'naviy, shuningdek, tashqi ko'rinishidagi barcha jihatlarini aks ettirishi bilan san'at darajasidagi asar bo'lishi mumkin.

Darhaqiqat, har bir insonning ichki dunyosi, go'zalligi, tabiat ato etgan andazasi mavjud. Portretchi rassom odamlarga xos turli harakatlarni his qila bilmog'i, ayniqsa, odamning qiyofasidagi samimiyyik yoki soxta jihatlarini tasvirlay bilish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

Tasviriy san'atning portret janri insonning ma'naviy qiyofasini o'zida ifodalashi bilan san'atning boshqa sohalaridan birmuncha farq qiladi.

Partret san'ati o'z ornida animalistic janr bilan o'zaro homa-hong uyg'unlikda bog'lanib, betakror go'zal asarlar yaratiladi. Javlon Umarbekovning "Qo'shiq" nomli asari shunday asarlar sarasiga kiradi. Portret san'atini yaratishda bebaho yutuqlarni qo'lga kiritgan buyuk rassomlardan Kamoliddin Behzod, Leonardo da Vinchi, Rembrandt, shuningdek, o'zbek rassomlaridan Abdulhaq Abdullayev, Rahim Ahmedov, Chingiz Ahmarov va boshqa bir qancha rassomlarni misol qilib keltirish mumkin.

Natyurmort-fransuzcha jonsiz tabiat degan ma'noni beradi. Odamlar hayotida ishlatiladigan buyum-narsalar, sabzavot va mevalar, asbob-uskuna kabilarga o'xshash namunalarning tasviri muayyan shaklda chizishi mazkur janrga xos. Ma'lumki, har bir rassom tasviriy san'at sirlarini o'rganishni natyurmort ishlashdan boshlaydi. Buyumlar va narsalar shaklini, formasini, xarakterli o'zlashtirish san'atning boshqa jihatlarini va turlarini o'rganishdagi dastlabki saboqlardir. Lekin bu natyurmort san'at sifatida faqatgina boshlang'ich vazifa bo'lib qoladi, degan ma'noni bermaydi, vaholanki natyurmortning san'at darajasida

yaratilishi o'ziga xos murakkab va katta maktabni talab qiladi. Qushlar ishtirokida tushilgan natyurmort asarlari esa kishilarga etetik did bag'ishlab go'zallik sari chorlaydi. Tasviriy san'at tarixida Vilyam Klass Xeda, Jan-Batist-Simon Marden, Frans Snayders, Yanvan Geysum, Rahim Ahmedov, Akmal Ikromjonovlarning o'z o'rnini bor.

Manzara - janrdagi asarlarda borliq, tabiatdagi ko'rinishlar xaqqoniy aks ettiriladi. Manzarada faqatgina narsa va voqealar emas, balki musavvirning ichki kechinmalari ham ifodalanadi. Ayrim musavvirlar vodiylarni, tog'u-toshlarni tasvirlashga ishqiboz bo'lsalar, boshqalari dengiz manzarasini tasvirlashda muxiridirlar. Manzara janrida ishlangan asarlarda albatta hayvonlar va qushlar tasviri o'z ifodasini topadi. Bu esa asar mazmunini yanada kengaytrishga xizmat qiladi. Manzara janrida musavvirlardan O'.Tansiqboyevning "Q'zbekistonda mart", "Jonajon o'lka", "Mening qo'shig'm", N.Kashinaning "Tog'da baxor", Z.Inolomovaning "Arpa o'rimi", "Choyga", R.Tyemurovning "Bibixonimda baxor", "Ulug'byek madrasasi" asarlari mualliflarga shuxrat keltirdi.

Tarixiy janrdagi asarlarda tarixiy voqealar, tarixiy obrazlar aks ettirilsa, batal janrida tarixiy jang voqealari, harbiy obrazlar tasvirlanadi.

Animalistik - janr o'zgacha tasviry san'at turidir. U lotincha "anima", "hayvonot olami" degan ma'noni bildiradi. Animalistik rassom hayvonot dunyosiga zo'r qiziqish, sevgi va mahorat bilan yondoshadi.

Hayvonot dunyosi ibtidoiy odamlar hayotida katta ahamiyatga ega bo'lgan. O'sha davrda ular g'orlarining devorlariga kiyik, qutos, mamontlarning suratlarini chizganlar. Qadimgi Yaponiya va Xitoyda hayvonlarning tasvirlari dyekorativ naqshlar tuzishda hamda monumyental kompozitsiyalar yaratishda asosiy hisoblangan. XVI asrga kelib hayvonot olami anatomiyasini buyuk musavvirlar Lyeonardo da Vinchi va A.Dyuryerlar ishladilar.

Keksa haykaltarosh va grafik musavvir V.A.Vatagin o'zining asarlarida to'rt oyoqli dustlarini haqqoniy va ishonchli tasvirlaydi.

Botal janri - “botal” frantsuzcha soʻz boʻlib, “jang”, “urush” maʼnosini bildiradi. U jang manzaralarini oʻzida aks ettiradi. Bu janrda jang va harbiy yurishlar manzarasi asosiy oʻrinni egallaydi. Botalist - rassomlarning asarlarida jangchi obrazi, uning qaxramonligi, mardligi, jasorati hamda oʻz ona Vataniga boʻlgan cheksiz muhabbati ifodalanadi. Leonardo da Vinchi, M.B.Gryekov, G.K.Savitskiy, A.A.Dyeynyeka, V.V.Volkov va boshqalar ana shunday musavvirlardandir. Taniqli ijodkor M.Nabiyevning “Spitamyen qoʻzgʻoloni”, musavvir R.Rizamuxammyedovning “Muqanna qoʻzgʻoloni”, musavvir T.Sodiqovning “Tumarisning qasosi” nomli asarlari bunga yorqin misol boʻla oladi.

Maishiy janr: Tasviriyy sanʼatda bu janrdagi asarlar kishilarning kundalik hayotini, turli voqyealarni oʻzida mujassamlashtiradi. Aksariyat rangtasvirda aks etuvchi maishiy janr ilk bor XVII asrda yashab ijod etgan Golland rassomlari - Pityer dye Xox, Ostadye, Styen, Tyerborx, Vermyer kabilar ijodida namoyon boʻladi. Realist rassomlardan P.Fedotov, V.Perov, V.Maksimov, V.Makovskiy, K.Savitskiy, I.Repin kabilar maishiy janrning taraqqiyotiga katta xissa qushdilar. oʻzbek rassomlaridan R.Axmedov, M.Saidov, Z.Inogʻomov, R.CHoriyev, Oʻ.Abduraxmonovlar ham shu janrda barakali ijod etmoqdalar.

Afsonaviy janrdagi tasviriyy sanʼat asarlarida esa hayotda uchramaydigan, biroq halq tomonidan hayolan oʻylab topilgan odam va hayvonlar, baliqlar, voqea hamda hodisalar tasvirlanadi. Xususan, afsonaviy janrdagi asarlarda osmonda uchib yurgan qanotli farishtalar, uch boshli ajdarlar, yarmi odam, yarmi ot “kentavrlar”, yarmi ayol yarmi baliq suv parilari, yarmi ayol, yarmi qush jonzotlar, bir koʻzli baxaybat devlar va xokazolar tasvirlanadi.

Afsonaviy janr tasviriyy sanʼatning hamma turlari (rangtasvir, haykajaroshlik, grafika)da keng qoʻllanadi.

Afsonaviy janrda ijod qilgan rassomlar qatoriga Rafael Santi, Sharq miniatyurachi rassomi Sulton Muxammad, rus rassomlaridan M.Vrubel, V.Vasnesovlarni kiritish mumkin.

Dengiznavislik janri. (Marinizm). Marina fransuzcha soʻz boʻlib, dengiz koʻrinishi maʼnosini bildiradi. Marinizm — yaʼni dengiznavislik rangtasvirning turi sifatida Yevropa sanʼatida alohida urinni egallaydi.

Dengiz, dengiz hayotidagi muhim voqealar, harbiy kemalar tafsilotini aynan tasvirlashda ushbu yunalish muhim ahamiyat kasb qiladi.

Golland manzarachi rassomlaridan Ya.Porsellis, S.de Vliger, X.Sigers va boshqalar dengiznavislik janri imkoniyatlarini yanada kengaytirib, dengiz tabiati va u bilan bogliq baliqchilar hayotini haqqoniy aks ettirishda samarali ijod qildilar.

Dengiz koʻrinishlari portret, tarixiy, batal, maishiy, animal janrdagi suratlarining orqa planida ham tasvirlanishi mumkin.

Nyu janri. “Nyu” soʻzi fransuz tilidan olingan boʻlib, yalangoch degan maʼnoni anglatadi. “Nyu” portret janridan ajralib chiqib, mustaqil ahamiyat kasb etgan. Mazkur janrda rassomlar koʻpincha yalangoch ayollar rasmini ishlaydilar va bu orqali ular tanasidagi nafosatni koʻrsatmoqchi boʻladalar. “Nyu” portret janri kabi yakka yoki koʻp figurali bulishi mumkin. U tasviriy sanʼatning barcha turlari (rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika)da keng qoʻllaniladi.

Interer janri. Bu janrda binolarning ichki kurinishi, foye, yulak, xonalarning uziga xos jihatlari, ulardagi jihatlar, bezaklar va gullar tasvirlanadi.

Animalistik janrini tasviriy sanʼaning barcha tur va janrlari bilan boʻgʻliqlik tamonlari borligini bilamiz. Rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, meʼmorchilik tasviriy sanʼat turlarida hayvonot olami va qushlar koʻrinishi bevosita uygʻunlashib goʻzal asarlar yaratilganini koʻp bora uchratishimiz mumkin. Tasviriy sanʼat janrlarida ham bunday oʻxshashlik tamonlari kuzatiladi. Animalistik janrda yaratilgan asarlar kishiga estetik zavq ulshib uning qalbiga goʻzallik olib kiradi

Animalistik janrda kompozisiyaning tutgan oʻrni.

Kompozitsiya tushunchasi keng maʼnoga ega boʻlib, qalamtasvir, rangtasvir, haykaltaroshlik va amaliy sanʼatning har bir turida oʻziga xos yoʻsinda va oʻziga mos mazmunni tashkil qiladi. Kompozitsiyadan olgan bilimlar talabalarni oʻz

sohasiga ijodiy yondashishlariga, o'qituvchilik faoliyatini jiddiy va qiziqarli olib borishlariga katta yordam beradi.

Ma'lumki, kompozitsiya tushunchasining barcha san'at turlariga aloqador umumiy jihatlari va shuningdek, har bir sohaga oid o'ziga xos jihatlari bor. Ularni atroflicha o'rganish, tahlil qilish talabalar ijodiy faoliyatining o'sishida muhim ahamiyat kasb etadi. Kompozitsiyaning qonuniyatlari nazariya va amaliyotga bolinadi.

«Kompozitsiya» so'zi orqali rassomlar badiiy tasviriy san'at asarining barcha qismlarining o'zaro munosabatlarining qonuniyatini tushunadilar. Ayrim shunday bog'liqliklar, albatta, ko'z orqali ko'rib anglashiladi (son jihatlari), boshqalari esa (sifat jihatlari) idroklash, fikrlash orqali qabul qilinadi.

Tasviriy san'at asarining kompozitsiyasi «tuzilishi»ga aloqador tushunchani mohiyatini qisqacha tarzda ko'rib chiqaylik. Buning uchun kompozitsiyaning son bog'liqligi munosabatlarini belgilari: bu chizilayotgan narsaning mutlaq o'lchami, uning asli nisbatiga, chizilayotgan o'lcham tomonlarining o'zaro nisbatlari, predmetlarning masshtabi, ular orasidagi masofalar, narsalarning qanday burilib turganligi (to'g'ridan ko'ringani — «fas», yondan «profil», yarim burilgan holati, «kombinatsiyalashgan» — murakkab va h.k.), ufq sathi darajasi, yorug'lik manbayining holati, yorug' soyaning taqsimlanishi, tusi, soya va yorug'ning nisbiy muvozanati, shuningdek, asosiy rang dog'larini muvozanati, tasvirlanayotgan obyektlar bo'laklarining o'zaro joylashishi, qiyofalar va fonga nisbatan «kontrast»lar farqi (rang, yorug'-soya, o'lcham), kompozitsiya tushunchalarini fazodagi ko'rinishini tashkil qilish (metr, ritm) va boshqalar.

Shunday qilib, ko'rish orqali qabul qilish mumkin bo'lgan belgilarni kompozitsiyaning vositalari, deb atashimiz mumkin. Musiqa yaratayotgan kompozitor notalardan foydalangani singari rassom ham yuqorida sanab o'tilgan vositalardan foydalanib, o'z asari g'oyasini yuzaga chiqaradi, tasvirlarda ko'rsatib beradi.

Kompozitsiya tamoyillari. U yaxlitlik, mutanosiblik, o'lchamlar muvofiqligi, muvozanat, birlik va uzviylikdir. Bular orqali rassom ishning sifat darajasini

ta'minlaydi. Rassom kompozitsiya tamoyillarini ustalik bilan qo'llab, har tomonlama yutuqqa erishadi, kompozitsiya bekam-ko'st bo'ladi.

Ma'lumki, kompozitsiya tamoyillari uch xil ko'rinishda namoyon bo'ladi: frontal, hajm-fazoviy va chuqurlik-fazoviy kabilardan iborat. Bulardan birinchisining belgisi — kompozitsiyaning ikkita koordinat orqali (vertikal va gorizontal) rivojlanishini bildiradi. Unda uchinchi koordinati — chuqurlik, ikkisiga bo'ysungan holatda ishtirok etadi. Bunday kompozitsiya amaliy bezak kompozitsiyalarida ko'p qo'llaniladi. Hajm-fazoviy kompozitsiyalarida esa shakllar uch o'lchamli holatlarda yaratiladi. Ular har tomondan turib, aylanib ko'rishga mo'ljallangan bo'lib, haykaltaroshlikda qo'llanadi. Chuqurlik — fazoviy kompozitsiya predmetlarni kartina tekisligida tasvir etishda qo'llanadi va dastgohli rangtasvirda foydalaniladi.

Tarixdan ma'lumki o'tmishning ulug' rassomlari kompozitsiya masalalariga juda jiddiy yondasganlar va o'z asarlarini yaratishda umumqoida bo'lib qolgan tamoyillarga amal qilganlar. Kompozitsiyaning «vertikal», «gorizontal», «doiraviy», «kvadrat», «burchak» va boshqa ko'rinishlarini qo'llab yuksak natijalarga, go'zal ifodaviylikka erishganlar.

Tasviriy san'atning barcha tur va janrlari qatori animalistic janrda ham kompozitsiyaning o'z o'rni bor. Kompozitsiya so'zi lotincha so'zdan olingan bo'lib, tuzish, birlashtirish, bog'lash, turli xil unsurlarni bir butun yaxlitlikka birlashtirish va biron-bir g'oyani madh etish ma'nosini bildiradi. Kompozitsiya – san'atning barcha yo'nalishida qo'llaniladi. Musavvir turli shakl va manzaralarni bir-biriga nisbatan solishtirib va joylashtirib nafis san'at asari yaratadi.

Ko'pincha asarning tomoshabin tomonidan qabul qilinishi, uning kompozitsiya echimiga bog'liq ekanligini yodda tutmoq kerak. Kompozitsiyani hayvonlar va qushlar dunyosidan boshlab organishga harakat qilib ko'raylik. Hayvonlar misolida ko'rilganda yugurib ketayotgan ot, uning ayogi, dumi, boshi, beli o'zaro bog'liq ekanligini nazarda tutmoq lozim. Rassom tasviriy shakl orqali bo'laklarni bir-biriga bog'laydi va umumlashtiradi. Tasvirlash, demak, asar bo'laklarini o'zaro aloqalarini o'rnatish, ularni umumiy yaxlitlikka bog'lash,

umumlashtirish orqali ko`zlangan maqsadga erishishdan iborat. Tasviriyl san'at asari qaysi janrga mansub ekanligi va ifodalash uslubidan qat'iy nazar kompozitsiya bilan bo'lanishi asarning tugallangan san'at asari ekanligini bildiradi. Musavvirlar asrlar davomida o'z asarlarining tasvirlash echimini aniq, ravshan, tiniq namoyon etish maqsadida kompozitsiyaning yangi tuzilmalarini qidirishgan. Natijada asarlarda shakl elemenlarining joylashuvi tartibsiz emasligi, sujetning ahamiyatga molik unsurlari oddiy geometrik ko'rinishlarda uchburchak, piramida, doira, oval, kvadrat, to'g'ri tortburchaklardan tashkil topadi. Yangi zamonaviy kompozitsiyalar yaratish uchun albatta, g'oya, joylashtirish, mutanosiblik, simmetriya, assimmetriya, nisbiylik, marom, xarakat turlari, ranglar uyg'unligi, kompozitsiya markazi, xajmi, stilizatsiya, shakllarni to'qri va teng qismlarga bo'lish, rangshunoslik qonunlariga to'liq rioya qilish lozim.

Animalistik janrda rasm ishlashda tasvirlarni kompozitsiyada to'g'ri joylashtirish maqsadga muvafiqdir. Joylashtirish – chizish kerak bo'lgan shakl yoki tasvirni yuzaga to'g'ri joylashtirishdir. Kompozitsiyada joylashtirish barcha mutaxassislik va soxalar uchun katta ahamiyatga ega. Musavvir o'zi chizmoqchi bo'lgan loyihani yuzaga to'g'ri joylashtira olishi lozim. Kompozitsiyada barcha unsurlarni to'g'ri joylashtira olmaslik natijasida asosida talabga javob bermaydigan san'at asarlar vujudga keladi. Asar mavzusidagi unsurlar tog'ri joylashsa kompozitsiya shuncha mukammal bo'ladi. Joylashtirish jarayonida kompozitsiya qonunlariga to'la rioya qilish shart. Kompozitsiya tuzilayotganda mavzu, g'oya, mantiq, joylashtirish simmetriya va assimmetriya, marom, mutanosiblik, nisbat, xarakat kompozitsiyada modul, keskin va nozik farqlanish, kompozitsiyasida stilizatsiya kabi qonunlar hisobga olingan holda ifoda etiladi.

Simmetriya – grekcha so'z bo'lib o'lchovlarning bir-biriga munosibligini bildiradi. Bir-biriga simmetrik o'lchovlarga misol keltiradigan bo'lsak tarozning pallasi ham bir-biriga nisbatan simmetrik joylashgan. Simmetriya mavzusi nihoyatda keng bo'lib uni vaqt va makondan cheklab bo'lmaydi. Insoniyat tarixi davomida deyarli har qanday sivilizatsiyada fan, san'at hamda intellektual faoliyatning boshqa turlarida, simmetriya muhim ro'l o'ynagan.

Me'morlar, musavvirlar, kompozitorlar, sozandalar va olimlar bir-birlariga yaqin tushunchalardan foydalanadilar, lekin turli tillarda gaplashadilar. Bu esa turli soha vakillarining simmetriya borasida bir-birlarini tushunishlarini yana qiyinlashtiradi. Simmetriya biz sezadigan jonzod va jismlar masalan: kapalak, mebel va osimliklar qamda hayvonat olamini qamrab olmasdan balki tasviriy san'at, kompozitsiya, musiqa, raqs, adabiyotda ham keng uchraydi. Simmetriya insonlar asrlar davomida tartib, go'zallik va mukammallikka erishish va yaratish uchun harakat qilishlaridagi g'oya b'olib kelgan. Tabiatda simmetriya qandaydir ichki qonunlar asosida vujudga keladi. Simmetriyaning estetik ahamiyati uning hayotdagi ahamiyatiga bog'liqmi? - degan savol tug'iladi. Boshqacha qilib aytganda ijodkor simmetriyani tabiatdan oladimi? Tabiatdan nusxa ko'chirib uni takomillashtiradimi? G o'zallik simmetriya bilan uzviy bog'liqdir. Ko'zguda aks etgan simmetriya hayotda va san'atda katta aqamiyatga ega. Ko'zguda aks etgan simmetriyaning aniq geometrik tushunchasi mavhum bo'lgan muvozanatlashish, garmonik ijod tushunchalari bilan aralashib, qorishib ketgan. Frey o'zining «Tasviriy san'atda simmetriya muammosiga doir» maqolasida yozadi: "Simmetriya xotirjamlik va bog'langanlikni bildiradi, assimmetriya esa uning butunlay qarama-qarshisi bo'lib qarakat va erkinlikni bildiradi. Shaklning simmetriya markazi, oqi yoki tekisligiga nisbatan bir xil joylashishi simmetriya deb ataladi. Simmetriya markazi, oqi yoki tekisligi atrofida aylantirilsa uning simmetrik unsurlari bir birining ornini to'la egallaydi. Simmetrik kompozitsiyaning alohida bir ko'rinishi – bu naqshlar. Simmetriya bilan bir qatorda assimmetriya tasvirlarda ko'p ishlatiladi.

Assimmetriya bu simmetriyaga qarama – qarshi qonun. Assimmetriya-simmetriyaning aksi va buzilishidir. Kompozitsiya assimmetriya asosiga qurilgan bo'lsa, unda asosiy qoidaga ko'ra simmetriya emasdir. Agar aksincha kompozitsiya simmetriya qoidalariga qanchalik rioya qilsa, assimmetriya bo'lmaydi.

Animalistik janrda rasm ishlashda maromning ham o'z o'rni bor. Marom olchamlari mos bo'lgan unsurlarning qonuniy ravishda ma'lum masofada

takrorlanishi va ketma-ket kelishidir. Marom tabiat va inson hayotidagi ko'pgina xodisalarga organik tarzda xos bo'lgan xossadir. Kun va tunning, yil fasllari almashishi, organik hayot turli shakllarining rivojlanish davriyligi vaqtda yuz beradi. Bu davriylik va takrorlanish moddiy shakllarda o'z izini qoldiradi. Masalan, daraxt tanasi qirqimida yillik halqalarning takrorlanishi, yil fasllarining ketma-ket qaytarilishi tufaylidir, vaqtdagi davriylik fazoviy moddiy shakllarda o'z aksini topadi. Marom real borliq qonuniyatlarining aks etishi sifatida barcha san'at turlariga kirib kelgan hamda badiiy shakl yaratishning zaruriy vositasiga aylangan.

Kompozitsiyalar tuzishda mutanosiblik uslublarining qo'llanilishi muhim aqamiyat kasb etadi. Shaklning ikki unsuri qismning o'zaro olchamli munosabati mutanosiblik deyiladi.

Nisbat keng ma'noda noma'lum bir kattalikni boshqa ma'lum kattalikka nisbatlash orqali topish imkonini beradigan munosabatdir. Nisbat tushunchasi o'zining dastlabki ma'nosida ifodalanayotgan chiziqli uzunligining haqiqatda mavjud bo'lgan chiziqli uzunligiga nisbatini bildiradi. Nisbat sonlarda yoki ma'lum olchamdagi to'g'ri chiziqli kesmalari orqali ifodalanishi mumkin. Nisbat bo'lganligi tufayli biz chiziqlarni, haritalarni oqish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Ushbu holatda nisbat chizilgan jism olchamlari uning haqiqatdagi olchamlariga mos kelishi darajasini ifodalaydi. Inson ko'rayotgan biror narsaning kattaligini real sezish uchun uni yaxshi ma'lum bo'lgan boshqa bir narsa bilan aqlan solishtirib ko'rishi lozim.

Modul - buyum olchamlarini hisoblashga asos qilib olingan kattalikdir. Buyumlar olchamlarining modulga tushishligi ular yordamida bitta buyumning aynan o'zini turlicha yig'ish, yoki ularni boshqa buyumlarda ishlatish imkonini beradi. Asosiy modul buyumning boshlanqich olchamidir.

Kompozitsiyada keskin farqlanish solishtirishning buyumning tashqi ko'rinishdagi ranglarning o'ziga xos belgilarni aniqlaydi. Keskin farqlanish xususiyatlarini baholashda buyumlarni bir-biriga nisbatan solishtirish mumkin.

Solishtirish jarayonida ayrim olchamlarda keskin farqlanish ko‘z bilan qarab asongina aniqlanadi.

Nozik farqlanish. Solishtirilayotgan jismlarning katta-kichikligi, tasviri, rangi, hajmi, joylashishi, tashqi ko‘rinishidagi yaqin xususiyatlar nozik farqlanish deyiladi. Bu bir xil turdagi jismlar va qismlar orasidagi nozik belgilarni ajratish imkonini beradi. Nozik farqlanish k o‘zning bir qator takroriy harakatidan iborat ancha murakkab solishtirish jarayonidir.

Kompozitsiyasida stilizatsiya. Stilizatsiya tabiatdagi osimlik, hayvonot va boshqa narsalarning tasviri, rangi, shakli, va tuzilishi badiiy usulda umumlashtirish ya'ni ramziylashtirishdir. Talabalar kompozitsiya unsurlari chizishda osimliklardan shox, poya, quncha, barg, gul, hayvonlar, qushlar, tabiat manzalari, tog'lar, daryolar, quyosh, yulduzlar va boshqa ko‘rinishlardan nushalar ko‘chirib, tasviri, rangi, shakli, va tuzilishlarini badiiy usulda umumlashtirib, ramziylashtiradi. Animalistic kompozitsiyalarida ulardan oqilona foydalanib juda ajoyib tasvirlarni hosil qiladi. Buni ko‘rgan inson aks ettirilgan shakldan estetik zavq oladi. Bu usuldagi tasvirlarni biz xalq amaliy san'atining barcha turlarida ko‘rishimiz mumkin. Masalan so‘zanani oladigan bo‘lsak falakning O‘rtasida quyosh, atrofida sayyora va yulduzlar, gullar barglar uslublashtirilgan xolda kishiga zavq beradi. Stilizatsiya osimlik va hayvonot dunyosidan olingan turli shakllardir. Masalan: butalar, novdalar, shohlar, barglar, mevalar, gullar va shu kabi shakllarni qayta ishlash demakdir. Talabalar o‘zlari tanlagan naturaning shaklini kompozitsiya tarkibiga qo‘shish mumkin bo‘lgan bezak shakliga keltiradi. Bunda naturaning ayrim qismlari, ranglarni badiiy shaklga keltiriladi. Bular talabalarining ijodiy fantaziyasini yanada rivojlantirishga yordam beradi va ularning ijodiy qobiliyatini yanada ostirib boradi. Bunda talabalar butun bir yaxlit jsmnning tashqi ko‘rinishini bir necha badiiy chiziqlar yordamida aniq va lo‘nda qilib tasvirlashni organadilar. Tasvirlash jarayonida kompozisiya qonun qoidalarini puhta o‘zlashtirmasdan turib yaxshi animalistic janrda asarlarini yaratib bo‘lmaydi.

Kompozitsiya tuzishga mohir bo‘lgan va uni o‘z asarlarida mukammal darajaga olib kirgan mo‘vqalam ustalari: Leonardo da Vinchi, Mikelandjelo, A. Dvurer, J.D.

Engr, P. Rubens, Rafael, A. Ivanov, K. Bryullov, I.E. Repin va boshqalardir. O'zbek rassomlaridan tasviriy san'atning turli tur va janrlarida ijod qilgan va qilayotgan, musavvirlardan: O'. Tansiqboyev, I. Ikromov, Z. Inog'omov, Ch. Ahmarov, X. Husniddinxo'jayev, A. Abdullayev, M. Nabiyeu, R. Ahmedov, R. Choriyeu, I. Jabborov, A. Boymatov, J. Umarbekov, Sh. Abdurashidov, G'. Abdurahmonov, A. Mirzayeu, S. Abdullayeu, A. Ikromjonov, B. Jalolov, A. Nuritdinov, O. Qozoqov va boshqa ko'plab ijodkorlarni kompozitsiya ustalari deb atashimiz, ularning asarlarini ijobiy jihatlarini tahlil qilib, ibrat olishimiz mumkin.

Xulosa

Bulajak basviriyl san'at va muhadislik grafikasi o'qituvchisi fanni chuqur o'rganishi bilan o'zining dunyoqarashini, fazoviy tasavvurlarini oshirib boradi, ijodiy qobiliyati, yaratuvchilik hislatlari rivojlanadi.

Tasviriyl san'atning animalistik janri xususida hamma ham to'liq tasavvurlarga ega emas. Shuning uchun ham bu mavzuni ochib berishga harakat qildik. Tasviriyl san'atga qiziqqan barcha bo'lajak o'qituvchi animal janrda rasm chiza olish lozim. Bular haqida tushunchalarga ega bo'lish albatta foydali bo'lib yana bir bora bolalarning tasviriyl faoliyatini boshqarib bora olishiga zamin tayyorlaydi.

Tasviriyl san'at fani badiiy tarbiyaning asosini tashkil etadi va uni o'qitish orqali o'quvchilarda estetik tarbiyani shakillantiriladi. Tasviriyl san'atni o'qitishning asosiy maqsadi turli narsalarning tasvirini amaliy holda bajara olishga o'rganish va kompozisiyalar tuzishdir. Shuningdek narsalarni estetik idrok etishni o'rgatish, ijodiy qobiliyatini shakillantirish; amaliy rasim chizishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, yoshlarni tabiatga nisbatan yaxshi munosabatni rivojlantirish, jamiyatimiz, davlatimiz istiqboliga hissa qushadigan vatanparvar yoshlarni tarbiyalash kerak bo'ladi.

Qadimgi musavvirlar o'zlari istiqomat qilgan g'orlarning devorlarida chizib qoldirgan keyik, zubr va mamont tasvirlari xozirgi kunda ham o'z ta'sirini yuqotganicha yo'q. Ajdodlarimiz tarixining eng qadimgi davrlaridagi tasviriyl ifodalar beqiyos ahamiyat kasb etgan. Negaki, eng qadimgi odamlar bir-birlariga fikrlgrini. munosabatlarini, istaklarini chiziqlar, oddiy shakllar, primitiv tasvirlar orqali yetkazishga intilganlar. Masalan, ular ov qurolarini tasvirlash orqali ovga bormoqchi ekanliklarini ifodalasalar, yovvoyi buqa va boshqa turli hayvonlar tasvirlari orqali, o'sha hayvonlarni ovlamoqchi ekanliklarini bildirganlar. Bundan bilish mumkinki animalistik janrga oid bo'lgan tasvirlar o'sha davrlardan boshlab rivojlangan.

Hozirgi O'zbekiston hududidan ham ana shunday ibtidoiy jamoa davriga mansub o'nlab tasvirlar qoldiqlari topilgan. Shulardan biri Zaravutsoy g'orida ishlangan ov manzarasidir. O'zbekiston hududiga mansub qadimgi rangtasvir

san'atida ham animalistic janrga oid qushlar va hayvonlar obrazi aks etganligini ko'rishimiz mumkin. Bulardan, Samarqandning o'rni Afrosiyob, Surxondaryoning Bolaliktepa, Buxorodagi Varaxsha, Panjikentdagi devoriy rangli tasvirlar diqqatga sazovordir.


Animalistik janrda ishlangan tasviriy san'at asarlarini tomosha qilish va bu janrda rasm ishlash, kishi qalbida go'zallik hislarini, ezgulikni, tabiatga vatanga muhabbatni, yoshlarni sabr toqatli, chidamli bo'lishlarida hamda ularda mehnat qilish ko'nikmalarini shakllanishida yordam beradi. Animalistik janrda ishlangan tasviriy san'at asarlari jozibali va qiziqarliligi bilan nafaqat o'zlashtirishda, hatto uni idrok qila bilishda ham muayan tayyorgarlikni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.


1. I. A. Karimov. Yuksak ma'naviya yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat", 2008. nashriyoti.
3. M. Nabiyev. Rangshunoslik T., "O'qituvchi", 1995
4. N. Oydinov. Rassom-o'qituvchilar tayyorlash muammolari. T., "O'qituvchi", 1997.
5. S.S.Bo'latov. Rangshunoslik. T., O'zbekiston faylasuflari milliy nashriyoti 2009
6. B. Boymetov. N. Tolipov. Maktabda tasviriy san'at to'garagi. T., 1995
7. S. Uralov. Mo'jiza yaratish san'ati. T., "Mehnat", 1996
8. N. Oydinov. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar. T., "O'qituvchi", 1997
9. R. Xasanov. Tasviriy san'at asoslari. T., G'.G'ulom nomidagi matbaa ijodiy uyi. 2009
10. S.F.Abdurasulov. Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. T., "ILM – ZIYO", 2011
11. Shoxalil Shoyoqubov. Zamonaviy O'zbekiston mimiatyurasi.T., "O'zbekiston", 2006
12. P. P. Shabaratov. Miniatiyura. T. "Iqtisod - moliya" nashriyoti. 2011
13. R. Xasanov. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. T. "Fan", 2004
14. B. Boymetov. Qalam tasvir. T. "Musiqqa nashriyoti", 2006
15. G'. M. Abduraxmonov. Tasviriy san'at kompozitsiyasi. T., 1996
16. B.T. Maxmudov. Dasgohli rangtasvirda kompozitsiya. T., 2009

17. D. A. Nazilov. Kompozisiya asoslari. T., “Yangi asr avlodi”, 2009
19. www.tdpu.uz
20. www.pedagog.uz
21. www.Ziyonet.uz
22. www.nbgf.intal.uz
23. tdpu-INTERNET. Ped www.nbgf.uz.

Ilovalar .



Varaxsha saroyining “Qizil zal” devoriy rasmidan parcha (VII asr)



Afrosiyob devoriy rasmidan parcha (V-VII asrlar)





А. Дюрер. «Куёнча».



Kompozisiya mashg'ulotlarida animalistic janrda homaki rasmlar ishlash muhim jihatlardan biridir.